

**Axborot texnologiyalari sharoitida ma'muriy sud ishlarida ishtirok etuvchi
shaxslarning huquqiy kafolatlarini takomillashtirish**

Madrahimova Guljahon Ruzimboy qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: guljahon_20@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborot texnologiyalari sharoitida ma'muriy sud ishlarida ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy kafolatlarini takomillashtirish masalasi yoritiladi. O'zbekiston Respublikasida ma'muriy sudlar tashkil etilishi, elektron sud tizimlari, masofaviy eshituvlar, "my.sud.uz", "E-XSUD", "Adolat" ATK va boshqa raqamli platformalarning joriy etilishi fuqarolarning sudga murojaat qilish imkoniyatlarini kengaytirgani ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, Konstitutsiya va Ma'muriy sud ishlarini yuritish kodeksida belgilangan protsessual tenglik tamoyillari, xalqaro huquq standartlari bilan uyg'unligi tahlil qilinadi. Islohotlar natijasida fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlari samarali himoya qilinishi, jarayonlarning shaffofligi hamda sud hokimiyatiga ishonchning ortishi ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Аннотация

В данной статье рассматривается вопрос совершенствования правовых гарантий участников административного судопроизводства в условиях развития информационных технологий. Отмечается, что создание административных судов в Республике Узбекистан, внедрение электронных судебных систем, дистанционных слушаний, а также таких цифровых платформ, как "my.sud.uz", "E-XSUD", "Adolat" АИС и других, значительно расширило возможности граждан обращаться в суд. Кроме того, анализируются конституционные и процессуальные нормы, закрепляющие принцип равенства сторон и соответствие международным правовым стандартам. В работе делается вывод о том, что проведённые реформы обеспечили эффективную защиту прав граждан и юридических лиц, повысили прозрачность судебных процедур и укрепили доверие к судебной власти.

Abstract

This article explores the issue of improving legal guarantees for participants in administrative proceedings under the conditions of rapid development of information technologies. It highlights that the establishment of administrative courts in the Republic of Uzbekistan, the introduction of electronic court systems, remote hearings, and digital platforms such as “my.sud.uz,” “E-XSUD,” and the “Adolat” information system have significantly expanded citizens’ access to justice. The analysis also focuses on constitutional and procedural norms that ensure the principle of equality of the parties and their compliance with international legal standards. The study concludes that the reforms have strengthened the effective protection of the rights of individuals and legal entities, enhanced transparency of judicial procedures, and increased public trust in the judiciary.

Kalit soʻzlar: maʼmuriy sudlar, huquqiy kafolatlar, protsessual tenglik, elektron sud tizimi, raqamlashtirish, shaffoflik, fuqarolik nazorati, xalqaro tajriba.

Ключевые слова: административные суды, правовые гарантии, процессуальное равенство, электронная судебная система, цифровизация, прозрачность, гражданский контроль, международный опыт.

Keywords: administrative courts, legal guarantees, procedural equality, electronic court system, digitalization, transparency, civic oversight, international practice.

KIRISH Axborot texnologiyalari sharoitida maʼmuriy sud ishlarida ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy kafolatlarini takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi. Soʻnggi yillarda davlat boshqaruvi tizimida shaffoflik va ochiqlikni taʼminlash uchun maʼmuriy sudlar faoliyati keng rivojlanmoqda. Elektron sud tizimlari, masofaviy eshituvlar va sud portallari orqali jarayonlar tezlashmoqda, biroq bunda ishtirokchilarning huquqlari va kafolatlari ham muvofiq tarzda mustahkamlanishi zarur. Maʼmuriy adolat samaradorligi faqat jarayonning soddalashuvi bilan emas, balki tomonlarning protsessual tengligi kafolatlanishi bilan belgilanadi.

Maʼmuriy sud ishlarini yuritishda odil sudlov tamoyillaridan biri sifatida fuqarolarning shaxsiy belgilaridan qatʼi nazar teng huquqliligi alohida eʼtirof etilgan. Oʻzbekiston Respublikasining Maʼmuriy sud ishlarini yuritish toʻgʻrisidagi kodeksning 9-moddasida maʼmuriy ishlar boʻyicha sudlov jarayonida fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, eʼtiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi va ijtimoiy mavqeidan qatʼi nazar,

ularning qonun va sud oldidagi tengligi ta'minlanishi belgilab qo'yilgan[1]. Shu bilan birga, yuridik shaxslarning ham mulkchilik shakli, joylashgan hududi yoki boshqa xususiyatlariga qaramasdan teng huquqliligi belgilab qo'yilgan. Bu norma nafaqat milliy huquqiy tizimning demokratik tamoyillarga asoslanganligini ko'rsatadi, balki xalqaro huquq standartlariga ham mos keladi.

ASOSIY QISM O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasi fuqarolarning asosiy huquqiy kafolatlaridan biri bo'lgan sud himoyasi huquqini mustahkamlaydi. Mazkur norma har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish imkoniyatini beradi. Eng muhimi, davlat organlari yoki ularning mansabdor shaxslari tomonidan qabul qilingan noqonuniy qarorlar, shuningdek, ularning harakatlari yoki harakatsizliklari ustidan ma'muriy sud tartibida shikoyat qilish huquqi kafolatlangan[2]. Bu qoidaning amaldagi ahamiyati shundaki, u davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan fuqarolik nazoratini ta'minlaydi va huquqiy davlat tamoyillarini mustahkamlaydi.

O'zbekistonda 2017-yildan boshlab ma'muriy sudlarning tashkil etilishi davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarda yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu institutning joriy etilishi fuqarolarning davlat idoralari bilan munosabatlarida qonun ustuvorligini ta'minlashga xizmat qildi. Konstitutsiya va "Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risida"gi kodeksning normalariga tayangan holda, davlat organlari qarorlarining qonuniyligi va ularning mansabdor shaxslari faoliyatining xolis baholanishi imkoniyati kengaydi.

So'nggi yillarda sud-huquq tizimida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish masalasi markaziy o'rinni egalladi. Elektron hujjatlar aylanishi, masofaviy sud majlislari, onlayn kuzatuv tizimlari va sud axborot portallari kabi amaliy mexanizmlar joriy etilishi natijasida jarayonlarning shaffofligi oshdi, fuqarolarning sudga murojaat qilish imkoniyatlari soddalashdi.

Oliy sud raisi ta'kidlaganidek, zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash sud protseduralarini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishi bo'lib, bu nafaqat huquqiy siyosat samaradorligini mustahkamlaydi, balki sud hokimiyatiga jamoatchilik ishonchini kuchaytiradi. Bu esa xalqaro amaliyotda ham ilg'or yondashuv sifatida e'tirof etilmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqi davlatlarida elektron sud platformalari

fuqarolarning sud tizimiga bo'lgan ishonchini oshirgan bo'lsa, AQShda "e-filing" tizimi sud jarayonlarini tezlashtirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, raqamli sud tizimi fuqarolarga sudga murojaat qilish qulayligini oshiradi.

E-SUD elektron tizimi fuqarolarga xohlagan vaqtda va qulay joyda da'vo arizasini topshirish hamda ishi bo'yicha to'liq hujjatlarga kirish imkonini beradi, bu nizolarni o'z vaqtida va samarali hal etishga yordam beradi. Bunday islohotlar ma'muriy sudlarda ishtirok etuvchi shaxslar - fuqarolar, tadbirkorlik sub'ektlari va davlat organlari - huquqiy kafolatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi[3].

Deputat Sh. To'xtashevning fikriga ko'ra, O'zbekiston siyosatida mustaqil, ochiq va shaffof sud tizimini shakllantirish muhim ustuvorlikka aylangan. Shu maqsadda xorijiy tajribaga tayangan holda institutsional islohotlar bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Ayniqsa, odil sudlovda ochiqlikni ta'minlash, jamoatchilik nazoratini kengaytirish va sud qarorlarida insonparvarlik tamoyilini qo'llash aholining huquq va manfaatlarini ishonchli kafolatlashga xizmat qilmoqda[4]. Sud-huquq tizimidagi islohotlarning muhim yo'nalishi sifatida raqamlashtirish joriy etildi. Shu asosda yagona "my.sud.uz" portali ishga tushirildi. Portal orqali ariza topshirish, namunaviy blanklardan foydalanish, davlat boji miqdorini aniqlash, sud majlislari jadvali bilan tanishish, sud qarorlarini onlayn olish va murojaatlar monitoringini kuzatish imkoniyati mavjud. Bu xizmatlar fuqarolar va yuridik shaxslar uchun jarayonlarni sezilarli darajada yengillashtirib, sud faoliyatida shaffoflikni ta'minlashga xizmat qilmoqda[5]. Oliy sud huzurida faoliyat yuritayotgan "E-XSUD" elektron qabulxonasi ham sud-huquq tizimini raqamlashtirishda muhim qadam bo'ldi. Ushbu tizim orqali ariza, shikoyat, iltimosnoma va boshqa hujjatlarni onlayn yuborish imkoniyati yaratilgan. "E-XSUD"da ro'yxatdan o'tish tartibi hamda shaxsiy kabinetdan foydalanish qoidalari alohida nizom bilan belgilangan. Shuningdek, elektron xabarnomalarni JShShIR orqali tekshirish va sud qarorlarining onlayn bazasidan foydalanish imkoniyati ham mavjud. Bu yangiliklar fuqarolar va yuridik shaxslar uchun sud xizmatlariga tezkor, qulay va shaffof tarzda murojaat qilish imkonini bermoqda[6].

2020-yildan boshlab sudlar faoliyatini yanada raqamlashtirish maqsadida "Adolat" axborot tizimlari kompleksi (ATK) joriy etildi. Hukumat qarorlariga muvofiq, "Adolat" ATK boshqa davlat organlari axborot tizimlari bilan integratsiya qilinib, sudlarga shaxslar haqidagi zarur ma'lumotlarni elektron so'rov orqali bepul olish

imkonini kengaytirdi. 2022-yildan tizimning asosiy imkoniyatlari amaliyotga joriy etildi. Bugungi kunda “cabinet.sud.uz” va “adolat.sud.uz” platformalari orqali foydalanuvchi kabineti, hujjat aylanishi va turli xizmatlarga qulay kirish imkoniyatlari yaratilgan. Bu esa sud jarayonlarida tezkorlikni oshirib, shaffoflik va samaradorlikni ta’minlamoqda. So’nggi yillarda odil sudlov tizimida ochiqlik tamoyillarini kuchaytirish yo’nalishida muhim qadamlar qo’yildi. Jumladan, “public.sud.uz” saytida sud hujjatlari, xususan yakuniy qarorlar, Internet tarmog’ida muntazam e’lon qilinmoqda. Shuningdek, “jadval2.sud.uz” resursi barcha toifadagi ishlar bo’yicha sud majlislari jadvalini ko’rsatib boradi. Ushbu mexanizmlar jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi, sud faoliyatida shaffoflikni ta’minlaydi va odil sudlovning xalqaro ochiqlik standartlariga mos kelishini ko’rsatadi[8].

Masofaviy sud majlislari bo’yicha alohida huquqiy qadam tashlandi. 2025-yil 11-martda qabul qilingan O’RQ-1047-son Qonun Fuqarolik protsessual, Iqtisodiy protsessual va Ma’muriy sud ishlarini yuritish kodekslariga o’zgartirishlar kiritdi. Endi videokonferensaloqa rejimidagi majlislarda nafaqat statsionar sud punktlari, balki ishni ko’rayotgan sudning mobil videokonferensiya tizimidan ham foydalanish mumkin. Guvoh, ekspert, tarjimon huquqlari tushuntirilishi va qasamyod audio-video yozuvga olinishi shartligi ham qonun darajasida mustahkamlandi. Bu normalar fuqarolarga masofadan to’liq huquqiy ishtirok etish imkonini bermogda[9].

O’zbekistonda so’nggi yillarda ma’muriy sud tizimi va sud-huquq sohasida amalga oshirilgan islohotlar natijalariga umumiy baho berilganda, ular fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga xizmat qilayotganini ko’rish mumkin. Konstitutsiyaviy normalar asosida fuqarolarning sud himoyasi huquqi mustahkamlanib, 2017-yildan ma’muriy sudlarning tashkil etilishi davlat idoralari faoliyati ustidan fuqarolik nazoratini kuchaytirdi. Shu bilan birga, elektron sud tizimlari, “my.sud.uz” va “E-XSUD” kabi portallar, “Adolat” ATK hamda “public.sud.uz” va “jadval2.sud.uz” resurslari orqali shaffoflik darajasi sezilarli oshdi, murojaat qilish jarayoni soddalashdi, hujjat aylanishi tezlashdi. Masofaviy sud majlislari qonuniy tartibda kengaytirish esa ishtirokchilarning to’liq protsessual tengligi va huquqiy kafolatlarini ta’minlashda muhim qadam bo’ldi. Deputatlar va sud rahbarlari ta’kidlaganidek, ushbu yangiliklar nafaqat milliy huquqiy tizimning demokratik tamoyillarga asoslanganligini ko’rsatadi, balki xalqaro standartlarga ham

mos kelib, jamiyatda sud hokimiyatiga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Xulosa

O‘zbekiston ma‘muriy sud tizimida olib borilayotgan islohotlar davlat va jamiyat o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Yuqorida keltirilgan tahlillardan ko‘rish mumkinki, bu jarayonning eng asosiy yutug‘i fuqarolarning sud himoyasi huquqi real mexanizmlar orqali kafolatlanganidir. Raqamlashtirish jarayonlari - “my.sud.uz”, “E-XSUD”, “Adolat” ATK kabi tizimlarning joriy etilishi, masofaviy majlislar va onlayn portallar fuqarolar hamda yuridik shaxslar uchun sud xizmatlariga teng va qulay kirishni ta‘minlamoqda. Bu esa nafaqat jarayonlarni soddalashtiradi, balki odil sudlovda tenglik va shaffoflikni mustahkamlaydi. Shu o‘rinda aytish mumkinki, raqamli islohotlar natijasida sud faoliyatining tezkorligi va samaradorligi oshmoqda, jamoatchilik nazorati kuchaymoqda, eng muhimi, sud hokimiyatiga ishonch ortmoqda.

Xalqaro tajribalar elektron sud tizimlari huquqiy davlat poydevorini mustahkamlashda muhim vositaga aylanganini isbotlamoqda. O‘zbekiston amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, sud-huquq islohotlari endi nafaqat ichki ehtiyojlarga, balki global standartlarga ham javob bermoqda. Ma‘muriy sud ishlarida ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy kafolatlarini takomillashtirish nafaqat dolzarb masala, balki adolatli va demokratik jamiyat barpo etishning ajralmas sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi. 2018. 9-modda. <https://lex.uz/docs/-3527353>
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023. 55-modda. <https://lex.uz/docs/-6445145>
3. E-SUD as an innovative system of transparent and open justice. 2017. <https://www.uzdaily.uz/en/e-sud-as-an-innovative-system-of-transparent-and-open-justice>
4. Sh. To‘xtashev. Sud-huquq sohasidagi islohotlar inson qadriga qaratilgan. 2023. <https://parliament.gov.uz/articles/1679>
5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi. veb-sayti <https://my.sud.uz/index.html>
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatining Qarori. Respublika fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlariga murojaatlarni “E-XSUD” axborot tizimi orqali taqdim qilish Tartibini tasdiqlash to‘g‘risida. 2020. <https://lex.uz/en/docs/-4953647>
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4818-sonli qarori. Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2020. <https://lex.uz/mact/-4979896>
8. Internet tarmog‘ida e’lon qilingan sud qarorlari. <https://public.sud.uz>
9. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Aholiga sud muhokamalarida masofadan ishtirok etish uchun yanada qulay sharoitlar yaratilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida. 2025. <https://lex.uz/acts/-7426957>